

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**HAKIMOVA MOHINUR AZAMAT QIZI**

**IPAK IPLARINI QAYTA O‘RASH JARAYONINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga  
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Hakimova Mohinur Azamat qizi**

Ipak iplarini qayta o‘rash jarayonini takomillashtirish..... 5

**Хакимова Моҳинур Азамат кизи**

Усовершенствование процесса перемотки шелковых нитей..... 19

**Hakimova Mohinur**

Improvement of the process of rewinding silk threads..... 35

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Spisok opublikovannykh rabot

List of published works ..... 38

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**HAKIMOVA MOHINUR AZAMAT QIZI**

**IPAK IPLARINI QAYTA O‘RASH JARAYONINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga**  
**dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/T3720 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.web.tyeyi.uz](http://www.web.tyeyi.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Baymuratov Baxodir Xoldarovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Nabiyeva Iroda Abdusamatovna**  
texnika fanlari doktori, professor

**Valiyev Gulam Nabidjanovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Etakchi tashkilot**

**O'zbekiston Tabiiy tolalar ilmiy- tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil 27-avgust soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks: 253-36-17; e-mail: [titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz). Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiyasi ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№203-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 5-avgust kuni tarqatildi.  
(2024 yil 5-avgust №203-raqamli reyestr bayonnomasi).



**X.H.Kamilova**  
Ilmiy darajalar  
beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**A.Z.Mamatov**  
Ilmiy darajalar  
beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor  
**SH.SH.Xakimov**

Ilmiy darajalar  
beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## **Kirish (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda tabiiy ipak va u bilan aralash mato, tayyor kiyim hamda maishiy mahsulotlariga talab tobora ortib borgan sari sohada energiya-resurstejamkor va chiqindsiz texnologiyalarni qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Ipak gazlamalari sifatini oshirishda iplarni qayta o'rash jarayonini takomillashtirish, ipak mahsulotlarini raqobatbardoshligini ta'minlash va ishlab chiqarish texnologiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Jahonda ishlab chiqariladigan tabiiy ipak iplarining 60 foizi Xitoy va Hindiston davlatlari hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu ikki mamlakatdan tashqari Yaponiya, Koreya, Vyetnam, Braziliya, Italiya va Fransiya davlatlarida ishlab chiqarilgan ipak mahsulotlari sifat ko'rsatkichlari bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Shu jihatdan mavjud imkoniyatlardan to'laqonli foydalanib, qo'shilgan qiymatli tayyor ipak mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish va resurstejamkor texnologiyadan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda tabiiy tolalardan ishlab chiqarilgan mahsulotlariga bo'lgan talab kundan kunga oshib bormoqda, bu o'z navbatida zamonaviy takomillashgan texnologiyalarni va yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Qayta o'rash texnologiyasida ip tarangligini tadqiq qilish, to'qimachilik mashinalarining ip taranglovchi asboblarni texnologik mutanosibligini aniqlash uchun qurilma va usullar yaratish, qayta o'rash jarayonining takomillashtirilgan texnologiyasini ishlab chiqish, yuqori samaradorlikni ta'minlaydigan yangi usullarini yaratishdagi parametrlarni o'rnatish kabi muammolarni yechish alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda tabiiy ipak iplarini qayta o'rash jarayonini takomillashtirish, to'quv korxonalarini modernizatsiyalash, tabiiy ipakni qayta ishlash samaradorligini, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, resurstejamkor texnologiyalarni yaratish va takomillashtirish borasida qator ishlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Bu borada 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "...milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, ...milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish..."<sup>1</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlashda mahalliy xomashyodan ipak gazlamalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xususan, qayta o'rashda iplar harakatlanishining kerakli tezligini aniqlash, uning iplar uzilishi va xomashyo chiqindisi chiqishi xususiyatlariga ta'sirini o'rganish, ilmiy asoslangan usullar bilan xomashyodan oqilona foydalanish, ipak iplarini qayta o'rash

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

jarayonini zamonaviy texnologiyalarini takomillashtirish, klaster modeli asosida ipak gazlamalarini ishlab chiqarish sohada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 1-maydagi PF-71-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari va 2023-yil 24-fevraldagi PQ-73-son “Ipakchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Olib borilgan ushbu ilmiy tadqiqot ishi Respublikada ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida bajariladigan “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** To‘qimalar xususiyatlarini tadqiq qilish, yangi texnologiyalar yaratish, tabiiy ipak iplarini qayta o‘rash jarayoniga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, ipning harakatida ballon hosil bo‘lishi to‘g‘risidagi tadqiqotlar, qayta o‘rash jarayonida iplarga taranglik berishni hamda taranglovchi asboblarni o‘ziga xos jihatlarni tadqiq etish bilan xorijda Celik O., Eren R., Halfaoui R., Mesuda Y., Grekov D., V.A.Gordeyev, V.A.Usenko, G.N. Kukin, Ye.D. Yefremov, S.D.Nikolayev, P.V.Vlasov, N.A.Kulida, O.D.Baltayan, A.B.Brut-Brulyako, N.P. Isakov, A.I.Panin, A.B.Ishmatov va boshqalar shug‘ullanishgan.

Respublikamizda tabiiy ipak iplarini olish, qayta ishlash va qayta o‘rash jarayoni samaradorligini oshirish va unda qo‘llanadigan mashinalar parametrlarini asoslash bo‘yicha tadqiqotlar X.A.Alimova, Q.J.Jumaniyazov, E.Sh.Alimboyev, M.M.Muxamedov, A.D.Daminov, O.A.Axunbabayev, G.N.Valiyev, B.X.Baymurotov, D. N. Kadirova, S.X. Bobojonov, S.S.Raximxodjayev, A.M.Daminov va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida to‘qimachilik sanoatida qayta o‘rash mashinalarida tabiiy ipak ipini qayta o‘rashda tezligini oshirish kutilgan samaradorlikni bermayotganligi, ip uzilishlari oqibatida qayta o‘rash dastgohi to‘xtalishlarining ko‘pligi va buning oqibatida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligining pasayishi bu jarayonning yetarli darajada chuqur o‘rganilmaganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, qayta o‘rash jarayonida charxdan chiqayotgan ipning harakatini o‘rganish asosida ipak ipining tarangligini bir me‘yorda saqlash bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha o‘tkazilmagan.

Umuman olganda, olimlar va mutaxassislar tomonidan tabiiy ipak ipini qayta o‘rash bo‘yicha erishilgan muhim yutuqlarga qaramay, ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqarish muammosi hanuz mavjudligi, ip tarangligini bir

me'yorda saqlash masalalari yetarlicha hal etilmaganligi bu sohada keng ko'lamli tadqiqotlar olib borish bugungi kunda ham dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiyada olib borilgan ilmiy izlanishlar Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining OT-F4-14 raqamli "Pillalarni chuvishga tayyorlash va xom ipak ishlab chiqarish texnologik jarayonlarining nazariy asoslarini yaratish" amaliy loyihasi doirasida bajarildi.

**Tadqiqotning maqsadi** tabiiy ipak iplarini qayta o'rash jarayonini takomillashtirish orqali qayta o'rash dastgohi samaradorligini oshirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

qayta o'rash texnologiyasida ipning harakatini tadqiq qilish, uzilish sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo'nalishida bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilish;

qayta o'rash jarayonida tabiiy ipak ipini charxdan chuvatish jarayonini tadqiq qilish;

tabiiy ipak iplarini qayta o'rash jarayonida ip tarangligini dinamik holatlaridagi o'zgarish qonuniyatlarini aniqlash;

tabiiy ipak iplarini qayta o'rash jarayonini ko'p omilli regressiya tenglamasini olish, qayta o'rash jarayonining takomillashtirilgan texnologiyasini ishlab chiqish va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash.

**Tadqiqotning obykti** sifatida tabiiy ipak iplarini charxdan chuvatishda ip tarangligi va qayta o'rash dastgohi olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida ip tarangligining parametrlari, ip taranglagichning texnologik mutanosibliigi, tabiiy ipak iplarini qayta o'rash jarayonining ko'rsatkichlari.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida iplarning fizik va mexanik ko'rsatkichlarini aniqlashning eksperimental usullari, matematik analiz usullari, to'liq omilli tajriba asosida oliy matematika va matematik modellashtirish elementlari, ip tarangligining dinamik xususiyatlarini aniqlashda tenzometriya usuli qo'llanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

olib borilgan nazariy tadqiqotlar asosida iplarni kalavadan g'altakka o'rash jarayonining ratsional parametrlar aniqlanib, tabiiy ipak iplarini qayta o'rash texnologiyasi ip tarangligini nazorat qilish orqali takomillashtirilgan;

qayta o'rash jarayonida tabiiy ipak iplarini charxdan g'altakka o'ralishini nazariy tadqiqotlari asosida, ipning kalavada chuvatilish tezligi va ip tarangligining matematik bog'lanishi asoslanib, ishlab chiqilgan;

qayta o'rash jarayonida charxdan chiqayotgan ipning harakatini o'rganish asosida, ipak ipining tarangligini bir me'yorda bo'lishini ta'minlovchi taranglikning o'zgarish qonuniyatlari aniqlangan;

tabiiy ipak iplarini charxdan g'altakka qayta o'ralishda tarangligining muqobil qiymatlari aniqlanib, ular asosida qayta o'rash dastgohlari ip

taranglovchi asboblarning ratsional parametrlari nazariy asoslangan holda ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilarni o'z ichiga oladi:

xom ipakni charxdan gardishli g'altakka qayta o'rash jarayonida chiziqli zichlikka bog'liq bo'lgan holda yukning parametrlari o'rnatilgan;

qayta o'rash dastgohida ipning tarangligini nazorat qilish maqsadida elektron moslama o'rnatilgan;

Ipning tarangligini ta'minlovchi yukning chiziqli zichlikka mos ravishda o'rnatilishi orqali dastgohning ish unumdorligini oshirilishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** nazariy va tajribaviy tadqiqotlarning mosligi, aprobatsiya va qo'llash natijalarining ijobiyligi, ularning fundamental nazariyalarga muvofiq kelishi, hisoblash jarayonida standart usullar va yuqori aniqlikdagi vositalarni qo'llanilganligi, shuningdek olingan natijalarni ishlab chiqarishga joriy qilinishi tadqiqot natijalarining ishonchliligini belgilaydi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalarining ilmiy ahamiyati iplarni qayta o'rash texnologiyasi takomillashtirilib, tabiiy ipak ipini charxdan chuvatish tezligi va ip tarangligini matematik bog'lanishi olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyat ipak iplarini qayta o'rash tezligini ip tarangligiga va uzilishlari soniga ta'sirini tadqiqi asosida qayta o'rash tezligini ratsional parametrlarini o'rnatish orqali dastgohlarni ishlash samaradorligini oshishini ta'minlash bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tabiiy ipak iplarini qayta o'rash jarayonini takomillashtirilgan texnologiyasi ishlab chiqilgan va olingan ratsional parametrlar asosida erishilgan natijalar bo'yicha:

Xom ipakni g'altakka sifatli o'ralishi, g'altakka o'ralayotgan ipak iplarini tarangligini me'yorlashtirish maqsadida tabiiy ipak iplarini qayta o'rashning takomillashtirilgan texnologiyasi ishlab chiqilgan va Xorazm viloyati Xiva tumanidagi "Khiva Silk Fabric" MCHJ da joriy etilgan ("O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish" qo'mitasining ma'lumotnomasi №1-2/01 05.01.2024-y.). Natijada 100 kg ip qayta o'ralganda samaradorlik 7,9 % ga oshishiga erishilgan;

G'altakka o'ralayotgan ipak iplarini zichligini yaxshilash maqsadida tabiiy ipak iplarini qayta o'rash jarayonini ratsional ko'rsatkichlari asosida qayta o'rash mashinalarining iptaranglovchi asboblari yangi parametrlari ishlab chiqilib, Farg'ona viloyatidagi "Vodiy Majoni" MCHJ da joriy etilgan ("O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish" qo'mitasining ma'lumotnomasi №1-2/01 05.01.2024-y.). Natijada qayta o'rash dastgohining unumdorligi 16 % ga oshishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Muallifning dissertatsiya ishi doirasida erishgan asosiy ilmiy ishlari va natijalari 5 xalqaro va 3 respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza qilinib, 5 ta ilmiy seminarlarda muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiyada olib borilgan ilmiy izlanishlar bo'yicha 12 ta ilmiy ishlar nashr etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatidagi jurnallarda 4 ta maqola, 1 ta xorijiy va 3 ta Respublikaning nufuzli jurnallarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 104 betni tashkil qiladi.

### **Dissertatsiyaning asosiy mazmuni**

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, maqsadi va vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmeti ilmiy yangiligi ilmiy-amaliy ahamiyati, ishlab chiqarishga joriy etish natijalari, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“To'qimachilik iplarini qayta o'rash texnologiyasiga oid adabiyotlar tahlili”** nomli birinchi bobida ipak iplarini qayta o'rash jarayonida foydalaniladigan zamonaviy texnologiyalar hamda o'rama shakllantirishda iplarning tarangligi, zichligi va nuqsonlar hosil bo'lish sabablari tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari chuqur o'rganilib ipak iplarini qayta o'rash jarayonidagi muammoli holatlar keltirilgan.

Qayta o'rash mashinalarining asosiy kamchiligi o'rash tezligining oshishi bilan ipda hosil bo'ladigan ballon diametri markazdan qochma kuch hisobiga ortadi va iplarning uzilishi sodir bo'ladi. Hosil bo'ladigan markazdan qochma kuchni hisobga olgan holda, o'rash tezligini oshirish va o'rama sifatini yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish nuqtai nazaridan dolzarb masala hisoblanadi.

O'rganilayotgan mavzu bo'yicha olib borilgan tahlillar natijasida tabiiy ipak gazlamalari ishlab chiqarishni ko'paytirish va samaradorligini oshirish, texnika va texnologiyalarini takomillashtirish, ularning ilmiy asoslarini rivojlantirishga, xom ipak ipini qayta o'rash jarayoni unumdorligini oshirish, qayta o'rash jarayonini takomillashtirish bo'yicha muammoli holatlari aniqlandi.


Ushbu masalalarni hal etish vazifasi dolzarb ekanligi xulosa qilingan.

Dissertatsiyaning **“Ipak iplarini qayta o'rash jarayonida ip tarangligini tadqiq qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobida ipak ipini g'altakchaga bobinaga qayta o'rash jarayonida ip tarangligini va kuchlanishini nazariy tadqiqoti amalga oshirilgan. Shuningdek, ushbu bobda ipak iplarini qayta o'rash tezligini ip tarangligiga va uzilishlari soniga ta'sirini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilgan.

O'rama tarkibida kichik qalinlikdagi ko'p sonli qatlamlar mavjudligini va ma'lum darajada elastiklik xususiyatlarini namoyon etishini hisobga olib, uni uzluksiz muhit qonuniyatlari o'rinli bo'lgan muntazam yarimelastik muhit sifatida ko'rib chiqilgan.


O'ramaning asosiy geometrik parametrlari 1-rasmda ko'rsatilgan. O'ramaning uzunligi L bo'yicha kuchlanish va deformatsiyalarning o'zgarishini

ahamiyatsiz deb hisoblansa, u holda elastiklik nazariyasida ma'lum bo'lgan tekislik deformatsiyasi holatini ko'rib chiqish mumkin.



**1-rasm. O'rama hajmidagi kuchlarini taqsimlash sxemasi**

Tadqiqot olib borish jarayonida o'rash tanasidan *abcd* cheksiz kichik elementni kesib olib (2-rasm), qirqim asosida kuchlarning muvozanati o'rganilgan.



**2-rasm. O'rama hajmidagi kuchlarning muvozanat tenglamasini olish sxemasi**


Elementga quyidagi kuchlar ta'sir qiladi: radial  $B$  va  $B+dB$  ( $B = \sigma_r \delta r d\theta$ ), aylana  $N = (\sigma_0 + \sigma_\theta)$ . Barcha kuchlarni normal  $n$  yo'nalishiga proyeksiya qilib, quyidagi differensial muvozanat tenglamasi keltirib chiqarilgan.

$$\frac{d\sigma_r}{dr} + \frac{(\sigma_r - \sigma_\theta)}{r} = \frac{\sigma_0}{r} \quad (1)$$

bu yerda  $\sigma_0$ - qatlam hosil bo'lish momentida yuzaga keladigan aylana kuchlanishlari,  $\sigma_r$ - mos ravishda aylana va radial kuchlanishlar, o'rashning yuqori qatlamlari va sirt tarangliklari tufayli yuzaga keladi. Barcha kuchlanishlar, agar ular elementning cho'zilishiga olib keladigan bo'lsa, ijobiy hisoblanadi.

Ma'lumki, ip tarangligi qayta o'rash jarayonida asosiy omil hisoblanib, o'ranning zichligini va uning shaklini ta'minlaydi. Ip tarangligi belgilangan miqdordan kattaligi iplarning cho'zilishi, egiluvchanlik xususiyatlarini o'zgarishi

va uzilishiga olib keladi. Taranglik kamayib ketsa, kerakli uzunlik, shakl va zichlikdagi o‘rama hosil bo‘lmaydi. Tadqiqotda qayta o‘rash tezligi, uzilishlar soni va nazariy samaradorliklar orasidagi bog‘lanish qonuniyatini o‘rganish maqsadida amaliy tajribalar o‘tkazilgan (3-rasm)




**3-rasm. Qayta o‘rash tezligi, uzilishlar soni va nazariy samaradorlik orasidagi bog‘lanish**

Tezlik oshib borgan sari uzilishlar soni ortib, samaradorlikni pasayib borishini ko‘rish mumkin. Shuning uchun qayta o‘rash jarayonida muqobil tezlik qiymatini topish va uni jarayon davomida bir maromda ta‘minlash muhim. Olingan natijalar qayta o‘rash tezligi oshib borgan sari uzilishlar soni ortib, samaradorlikni pasayib borishini ko‘rish mumkin.

Dissertatsiyaning “**Ipak iplarini qayta o‘rash jarayonini takomillashtirish**” deb nomlangan uchinchi bobida ipak iplarini charxlardan g‘altaklarga qayta o‘rashda ipning uzilishini kamaytirish imkonini beruvchi texnologik me‘yoriy talablar va eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazish uslubiyati ishlab chiqilib, ip tarangligining muqobil qiymatlarini aniqlash maqsadida eksperimental tajribalar o‘tkazilgan. Qayta o‘rashda tajribalar MT-85 dastgohida olib borildi. Tajriba davomida qayta o‘ralayotgan ipining tarangligi, o‘rash tezligi, ip taqsimlagichning yurishi va charxning aylanish tezligi kabi ko‘rsatkichlarini aniqlash maqsadida dastgohga o‘lchash datchiklari o‘rnatildi.

Tajriba olib borilayotgan MT-85 dastgohida ip tarangligini elektron nazorat qilinishi mavjud emas. Qayta o‘rash jarayonida taranglik charx markaziga qo‘shimcha yuk osish orqali boshqariladi. Bunda, o‘rash tezligi va yuk og‘irligi ipning qalinligiga mutanosib bo‘lishi lozim. Aks holda, uzilishlar soni oshishi yoki o‘ram zichligi kamayishiga olib keladi. Tadqiqot davomida qayta o‘rash tezligi o‘zgarmas (70 m/min) bo‘lgan holatda charxga turli og‘irlikdagi


yuklar osilib ip tarangligini o'zgarish qiymatlari aniqlandi. Shuningdek, charxga osilgan yuk og'irligi o'zgarimas (70 gr) bo'lgan holatda qayta o'rash tezligini o'zgarishini ipning tarangligini o'zgarish qiymatlari aniqlandi.



4-rasm. Qayta o'rash jarayonida ip tarangligi o'zgarish

Bunda 1-chiziq qayta o'ralgan ipning tarangligi. 2-chiziq ip taqsimlagichning harakat qonuni. Nol nuqtadan ikkala bog'liqlik uchun mos yozuvlar kelib chiqishi ko'rsatgich (strelka) bilan ko'rsatilgan. 3-yashil chiziq charxning aylanish tezligini ko'rsatadi. Impulslar orasidagi masofa valning bir marta aylanishiga teng. Pulsning gorizontaal yo'nalishda harakat qilish vaqti 0,2 soniyani tashkil etadi. Bunda charxning aylanish vaqti 0,6 soniyaga teng bo'ladi. Va ipning tarangligi 5,4 gr.


Olingan qiymatlarni nazariy tadqiq qilish orqali qayta o'rash jarayonida ip tarangligi o'zgarishlar dinamikasi grafigi olindi.



5-rasm. Qayta o'rash jarayonida charx yukining ip tarangligiga bog'liqlik grafigi

Yuqoridagi rasmda charxdagi yukning og'irligiga qarab ip tarangligining o'zgarish grafigi keltirilgan bo'lib, charxdagi yuk massasi 55 — 100 gr oralig'ida o'zgartirilgan. Natijada ip tarangligi 7 sN dan 16 sN gacha tarangligi ortib borishini kuzatish mumkin. Charxdagi yukning massasi 1,8-marta o'zgarganda, ipning tarangligi 2,4 barobar ortadi. Bu ip tarangligining chiziqli bo'lmagan o'zgarishini ko'rsatadi.

Tadqiqotda qayta o'rash tezligining ip tarangligiga ta'siri ham o'rganilgan bo'lib, charxga osilgan yuk og'irligi o'zgarmas (70 gr) bo'lgan holatda qayta o'rash tezligini o'zgarishini ipning tarangligini o'zgarish qiymatlari aniqlandi va grafigi tuzildi (5-rasm).



**6-rasm. O'rash tezligini ip tarangligiga bog'liqlik grafigi**

Ushbu grafikdan ko'rish mumkinki, qayta o'rash tezligi 3,6 baravar oshishi bilan ipning tarangligi 2,3 barobar ortdi, ya'ni qayta o'rash tezligi 55 - 200 m/min oralig'ida o'zgarishi ip tarangligini 7 - 16 sN ga oshishiga olib keldi.

Dissertatsiyaning **“Ipak iplarini qayta o'rash jarayonini modellashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida qayta o'rash jarayonining muqobil texnologik omillarini aniqlash bo'yicha nazariy tadqiqotlar olib borilgan, hamda jarayonni takomillashtirishdan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik hisoblangan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ipni g'altakdan o'rashning to'g'ri tanlangan tezligi asosan to'qimachilik mahsulotlari yoki yarim tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun texnologik jarayonlarning barqarorligini va samaradorligini ta'minlaydi. O'z navbatida, qayta o'rash dastgohning unumdorligi va jarayon tezligi ipning uzilish darajasiga, ipning uzilish darajasi esa iplarning turi va tarangligiga bog'liq. Ilmiy tadqiqot ishi davomida qayta o'rash jarayonida ip tarangligi, yuk og'irligi va qayta o'rash tezligi miqdorining iplarning uzilishiga ta'sirini baholash uchun to'liq faktorial tajriba o'tkazildi. Tajribalarda chiziqli

zichligi 2,33 tekсли xom ipak ipi qo‘llanilgan. Ma’lumotlarini tahlil qilish va dastlabki tajribalar natijalariga ko‘ra chiqish ko‘rsatkichiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan quyidagi omillar aniqlandi va ularning o‘zgarish oraliqlari tanlab olindi:  $X_1$ - qayta o‘ralayotgan ipining tarangligi, sN,  $X_2$  – charxdagi yuk og‘irligi, gr,  $X_3$  – qayta o‘rash tezligi (1-jadval).

### Tajribaning rejalashtirish sharti


1-jadval

№	Omilning nomi, belgisi	Kodlash-tirilgan belgisi	Faktorning haqiqiy qiymatlari			O‘zgarish oraliq‘i
			-1	0	+1	
1.	Qayta o‘rashdagi ipining tarangligi, cN	$x_1$	5	10	15	5
2.	Charxdagi yuk og‘irligi, gr	$x_2$	60	80	100	20
3.	Qayta o‘rash tezligi, m/min	$x_3$	100	150	200	50

Amaliy tajribalardan olingan natijalarni statistik ishlov berish orqali quyidagi regression tenglamani olamiz.

$$Y_R(x_1, x_2) = 6.49 - 0.42 \cdot x_2 + 0.44 \cdot x_3 - 0.88 \cdot x_1 \cdot x_2 + 0.46 \cdot x_1 \cdot x_3 + 1.05 \cdot x_2 \cdot x_3 + 0.88 \cdot x_1 \cdot x_2 \cdot x_3$$


Olingan regressiya tenglamasiga hadlarni qo‘yish orqali quyidagi grafik olindi (7-9-rasmlar).



**7-rasm. Qayta o‘ralayotgan ipining tarangligi izochiziqlari ( $x_1 = 0,3 \div 1$  gacha oshishi yuk og‘irligining  $x_2 = 0,2-1$ )**

Qayta o‘ralayotgan ipining tarangligi  $x_1 = 0,3 \div 1$  gacha oshishi yuk og‘irligining  $x_2 = 0,2-1$  gacha oshishi hisobiga izochiziqlarda ya’ni g‘altakda

o‘rash jarayonida uzilishlar sonini kamayishini ko‘rishimiz mumkin. Bunda yuk og‘irligini eng katta qiymatida erishiladi.



**8-rasm. Qayta o‘ralayotgan ipining tarangligi izochizqlari ( $x_2 = 0,2-1$  oraliqda o‘zgarishi va qayta o‘rash tezligini  $x_3 = 0,4-1$  gacha oshganda)**


Yuk og‘irligini  $x_2=0,2-1$  gacha oshishi qayta o‘rash tezligini  $0,4-1$  gacha oshishi hisobiga izochizqlarda ipni g‘altakka o‘rash jarayonida ip uzilishining kamayishini ko‘rishimiz mumkin. Bunda ipning tarangligini maksimal  $x_1=1$  qiymatida erishiladi.

Ipining tarangligini  $x_1 = 0,2-1$  oraliqda o‘zgarishi va qayta o‘rash tezligini  $x_3 = 0-1$  gacha oshishi hisobiga izochizqlarda ipni g‘altakka o‘rash jarayonida ip uzilishini kamayishini ko‘rishimiz mumkin.

Qayta o‘rash mashinasida 2,33 teksli ipak ipini g‘altakka o‘rash jarayonida qayta o‘rash tezligi 80-100 m/min, yuk taqsimlagich qiymati 80-90 gr qiymatlarida amalga oshirilib, o‘ralayotgan ipning tarangligi 10-12 sN; o‘ramaga o‘ralayotgan ipak ipining o‘ram zichligi 0,55-0,65 g/sm<sup>3</sup> jarayon davrida uzilishlar soni kamayishi aniqlandi. Yuqorida keltirilgan grafiklar asosida ipak ipi tarangligi  $X_1=10$  cN; yuk og‘irligi —  $X_2=80$  gr; qayta o‘rash tezligi  $X_3=180$ m/min bo‘lgan qiymatlar eng nazariy jihatdan eng optimal deb xulosa qilish mumkin.

Ushbu ilmiy-tadqiqot ishida ipak ipini qayta o‘rashda avtomat datchiklarni o‘rnatish orqali uzilishlar sonini kamayishi, ish samaradorligini oshishi, g‘altaklarga bir tekis va zichlikda ip o‘ralishi ta‘minlanadi, natijada keyingi texnologik bosqichlarda ip uzilishlari soni kamayadi, ishlab chiqariladigan mahsulot sifati oshishi ta‘minlanadi. Ishlab chiqarishga avtomatlashtirilgan datchiklarni joriy etish natijasida mahsulot sifati oshishidan olinadigan yillik

iqtisodiy samaradorlik 1064736 ming soʻmni yoki 100 kg ip uchun 2800 ming soʻmni tashkil etadi.



**9-rasm. Qayta oʻralayotgan ipining tarangligi izochizqlari ( $x_1 = 0,2-1$  oraliqda oʻzgarishi va qayta oʻrash tezligini  $x_3 = 0-1$  gacha oshganda)**

### Xulosa

“Ipak iplarini qayta oʻrash jarayonini takomillashtirish” mavzusida olib borilgan tadqiqot ishi boʻyicha quyidagi xulosalarga erishilgan:

1. Oʻrganilayotgan mavzu boʻyicha olib borilgan tahlillar natijasida tabiiy ipak gazlamalari ishlab chiqarishni koʻpaytirish va samaradorligini oshirish, texnika va texnologiyalarini takomillashtirish, ularning ilmiy asoslarini rivojlantirishga, xom ipak ipini qayta oʻrash jarayoni unumdorligini oshirish, qayta oʻrash jarayonini takomillashtirish boʻyicha muammoli holatlari aniqlandi.
2. Respublikamiz ipakchilik korxonalarida ipak ipini qayta oʻrash jihozlari sifatida Yaponiyaning MT-85 qayta oʻrash dastgohlaridan foydalanilishi aniqlandi va afzalligi, kamchiliklari aniqlandi: — ikki gardishli gʻaltakka oʻralayotgan xom ipak ipining oʻram zichligi bir meʼyorda oʻralmasligi, bu esa oʻz navbatida oʻramaga oʻralayotgan ipning sifatini pasayishiga sabab boʻlishi; — toʻqimachilik sanoatida qayta oʻrash mashinalarida tabiiy ipak ipini qayta oʻrashda tezligini oshirish kutilgan samaradorlikni bermayotganligi, ip uzilishlari oqibatida qayta oʻrash dastgohi toʻxtalishlarining koʻpligi va buning

oqibatida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligining pasayishi nazariy asoslandi.

3. Ipak matolarini assortimentini kengaytirish uchun xom ipak ipini qayta ishlash samaradorligini oshirishning dolzarbligi va iqtisodiy samaradorligi asoslandi.
4. Qayta o‘rash jarayonida charxdan chiqayotgan ipning harakatini o‘rganish asosida ipak ipining tarangligini bir me’yorda saqlash bo‘yicha nazariy tadqiqotlar natijalari asosida qayta o‘rashda charxdan ipning chuvatish tezligi va ip tarangligini matematik bog‘lanishi ishlab chiqildi.
5. to‘qimachilik sanoatida qayta o‘rash mashinalarida ipak iplarini qayta o‘rash tezligini ip tarangligiga va uzilishlari soniga ta’sirini tadqiq qilindi. Olingan natijalar qayta o‘rash tezligi oshib borgan sari uzilishlar soni ortib, samaradorlikni pasayishini nazariy va tajribaviy tadqiqotlar asosida asoslandi.
6. Ip tarangligi qayta o‘rash jarayonida asosiy omil hisoblanib, o‘ramaning zichligini va uning shaklini ta’minlaydi. Ip tarangligi belgilangan miqdordan katta bo‘lmasligi, iplar cho‘zilib, egiluvchanligini aniqlab, taranglik kamayib ketmasligi, kerakli uzunlik, shakl va zichlikdagi o‘rama hosil bo‘lmasligi aniqlandi.
7. Ipak iplarini charxdan ikki gardishli g‘altakka qayta o‘rashda ularni tarangligining optimal qiymatlarini aniqlash, ipak iplarning qayta o‘rash tezligi, ipak iplarining dastlabki tarangligining bog‘liqlik ta’siri aniqlandi.
8. Nazariy va tajribaviy natijalar asosida mavjud MT-85 qayta o‘rash mashinasi takomillashtirildi. Qayta o‘ralayotgan xom ipak ipini tarangligini nazorat qiluvchi elektron taranglovchi moslamasi, hamda charx o‘qiga ipning chiziqli zichligini hisobga oluvchi yuk taqsimlagich o‘rnatildi.
9. Ipak iplarini charxdan ikki gardishli g‘altakka qayta o‘rashda ularni tarangligining optimal qiymatlarini aniqlash, ipak iplarning qayta o‘rash tezligi, ipak iplarining dastlabki tarangligining bog‘liqlik ta’siri aniqlandi. Qayta o‘rash tezligi doimiy 70 m/min qiymatda, taranglovchi yuk massasi tajriba davomida 55-100 gr oralig‘ida bo‘lgan holatdagi ipak ipining qayta o‘rash jarayonidagi ip tarangligi 5 sN – 12 sN gacha o‘zgarish dinamikasi grafiklari olindi. Charxdagi 1,8-marta o‘zgarganda, ipning tarangligi 2,4 barobar ortdi.
10. Qayta o‘rash jarayonida yuk og‘irligi doimiy, ipni charxdan naychaga qayta o‘rash tezligi 55- 200 m/min o‘zgarishi ip tarangligini 7 sN- 16 sN ga oshishi, qayta o‘rash tezligi 3,6 baravar oshishi bilan ipning tarangligi 2,3 barobar ortishi aniqlandi.

11. Ikki gardishli g'altakka o'ralayotgan o'rama zichligini ta'minlash uchun ipning bir xil va doimiy tarangligini saqlash maqsadida qayta o'rash tezligining va yukning og'irligining optimal qiymatlari aniqlandi. Qayta o'rash mashinasida 2,33 tekсли ipak ipini g'altakka o'rash jarayonida qayta o'rash tezligi 80-100 m/min, yuk taqsimlagich qiymati 80-90gr qiymatlarida amalga oshirilib, o'ralayotgan ipning tarangligi 10-12 sN; o'ramaga o'ralayotgan ipak ipining o'ram zichligi 0,55-0,65 g/sm<sup>3</sup> jarayon davrida uzilishlar soni kamayishi aniqlandi. Ipak ipi tarangligi X1=10 cN; yuk og'irligi — X2=80 gr; qayta o'rash tezligi X3=180m/min bo'lgan qiymatlar muqobil omillar deb topildi.
12. Ishlab chiqarishga avtomatlashtirilgan datchiklarni joriy etish natijasida mahsulot sifati oshishidan olinadigan yillik iqtisodiy samaradorlik 1064736 ming so'mni yoki 100 kg ip uchun 2800 ming so'mni tashkil etgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.08.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ  
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ  
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ХАКИМОВА МОХИНУР АЗАМАТ КИЗИ**

**УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССА ПЕРЕМОТКИ  
ШЕЛКОВЫХ НИТЕЙ**

**05.06.02 – Технология текстильных материалов и первичная  
обработка сырья**

**АВТОРЕФЕРАТ  
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2024**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за В2023.2.PhD/Т3720.

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.titli.uz](http://www.titli.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Баймуратов Баходир Халдарович**  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Набиева Ирода Абдусаматовна**  
доктор технических наук, профессор

**Валиев Гулам Набиджанович**  
доктор технических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Узбекский научно-исследовательский институт натуральных волокон**

Защита диссертации состоится 27 августа 2024 года в 14<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.08.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности (Адрес: 100100, г. Ташкент, ул.Шохжахон-5 в административном здании Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2 этаж аудитория 222, тел.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, факс: (+99871) 253-36-17; e-mail: [titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирована за №203). Адрес: 100100, г.Ташкент, ул. Шохжахон, 5, тел.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан «5» августа 2024 года (реестр протокола рассылки №203 «5» августа 2024 года).



**Х.Х.Камилова**

Председатель Научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

**А.З.Маматов**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

**Ш.Ш.Хакимов**

Председатель Научного семинара при научном совете  
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире с увеличением спроса на натуральный шелк и ткани с его смесью, готовую одежду и товары для дома, становится одна из главных задачи использование энергоресурсосберегающих и безотходных технологий в этой сфере. В целях повышения качества шелковых тканей особое внимание уделяется совершенствованию процесса перемотки нитей, обеспечению конкурентоспособности шелковых изделий, развитию технологии производства. 60% натуральных шелковых нитей, производимых в мире, приходится на Китай и Индию. Помимо этих двух стран, лидерами по качественным показателям являются шелковые изделия, производимые в Японии, Корее, Вьетнаме, Бразилии, Италии и Франции. Во всем мире большое значение имеет внедрение техники и технологий, позволяющих производить качественную продукцию, в создании текстильной продукции. В связи с этим особое значение имеют исследование и совершенствование процесса перемотки натуральных шелковых нитей, создание и внедрение технологий, повышающих эффективность переработки шелка.

